mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha 2020–2025-yillardagi prognoz ko'rsatkichlari belgilangan.


Xalqaro bozorda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining raqobatbardoshligini oshirish siyosatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga bog'liq (1-rasm).



1-rasm. Raqobatbardoshlik nazariyasi.

M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan raqobatbardoshlik konsepsiyalarining amaliyotga joriy etilishi Jahon iqtisodiy forumi (Shveysariya)ning “Global raqobatbardoshlik dasturi” orqali amalga oshirilmoqda. Muhim makroiqtisodiy indikatorlarning mamlakatlararo qiyosiy tahlili – “competitiveness benchmarking” va “policy benchmarking” – so'nggi yillarda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tasarrufidagi xalqaro tashkilotlar tomonidan iqtisodiy tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda (Jahon iqtisodiy forumi – World Economic Forum, WEF; Rivojlanishni boshqarish xalqaro instituti – International Institute for Management Development, IMD). Ularning maqsadi – barcha milliy iqtisodiyotlar orasidan xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli raqobatlashayotgan majmualar va tarmoqlarni aniqlash, raqobatbardoshlikka ta'sir ko'rsatayotgan, shuningdek mamlakatning raqobat ustunligini belgilovchi omillarni ajratib ko'rsatishdan iborat. Bu tizimlar raqobat darajasi bo'yicha differensiallashgan, muvofiqlashtirilgan ko'rsatkichlardan asos sifatida foydalanadi.

Rivojlanishning uch bosqichga bo'linishi Jahon iqtisodiy forumi tomonidan taklif etilgan raqobatbardoshlik nazariyasiga asoslanadi (2-rasm).



2-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish o'ziga xos xususiyatlari.

Hozirgi vaqtda muayyan mamlakatni rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish uchun yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi hissasi 65 foizdan yuqori bo'lishi

asosiy mezon hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlar soni hamda sifatiga qo'yilayotgan talablar oshib bormoqda. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish tarmoqlarida iqtisodiy o'sish omillarini aniqlash, shuningdek, iqtisodiy samaradorlikka erishishni muhim vazifaga aylantiradi.

Birgina qishloq va o'rmon xo'jaligi sohasida yangidan tashkil etilgan korxonalar va mikrofirmalar soni tahlil qilinganda, 2020-yilga nisbatan 4,5 barobar ortganligini ko'rish mumkin [6].

Istiqbolda mahsulot ishlab chiqarish hajmini aniqlash, avvalo, sohaga oid meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish uning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari va tabiiy-iqlim omillari bilan bog'liqligini izohlashga asoslanadi. Bu esa muayyan tadqiqot obyektining ishlab chiqarish faoliyatida yuzaga kelayotgan o'zgarish holatlarini e'tiborga olgan holda, ilmiy asosda bashoratlashni taqozo qiladi (3-rasm).



3-rasm. Meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari tizimi.

Iqtisodiy jarayonlar turli xil bo'lib, ular bir-biridan aniq belgilari bilan farqlanadi. Ekonometrik va iqtisodiy-matematik usullar milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini kompleks tahlil qilish, barqaror iqtisodiy o'sishning ko'p variantli modellarini yaratish, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda taqchil resurslardan optimal foydalanish yo'nalishlarini aniqlash, mavjud muammolarni analitik ifodalash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida iqtisodiy jarayonlarning matematik modellarini tuzish imkonini beradi. Shuningdek, bu usullar endogen va ekzogen omillar ta'sirini aniqlashga, milliy iqtisodiyotdagi tarmoqlar hamda korxonalarining biznes jarayonlarini modellashtirishga ko'maklashadi.



Qishloq xo'jaligida ko'plab iqtisodiy jarayonlar va hodisalar o'zaro korrelyatsion bog'lanishga ega bo'lib, ular ishlab chiqarish funksiyalari ko'rinishida ifodalanadi. Ushbu funksiya ko'p omilli iqtisodiy jarayonlarning matematik modeli bo'lib, sodir bo'layotgan hodisalarning o'zaro bog'liqligini, hamda ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar natijasida qanday ko'rsatkichlarga erishish mumkinligini aniqlaydi.

Demak, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida hosildorlik, mahsuldorlik, tannarx va ularga ta'sir etuvchi ko'plab omillarning o'zaro bog'liqligini matematik funksiyalar shaklida ifodalash mumkin.

Ishlab chiqarish funksiyalarining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Y=f(x_1, x_2, \dots, x_n)$$

bu yerda, Y-natijaviy ko'rsatkich; x_1, x_2, \dots, x_n - ishlab chiqarish omillari. Ular bog'liq o'zgaruvchilar ham deb nomlanadi.

Ko'p sonli omillarning ishlab chiqarish natijalariga ta'siri korrelyatsion tahlil asosida o'rganiladi. Korrelyatsion tahlil – bu matematik statistikaning uslublar to'plamidan iborat bo'lib, u tadqiq qilinayotgan hodisalarning belgilari o'rtasidagi sonli bog'liqlik va o'zaro aloqadorlikni aniqlashga xizmat qiladi.

Jahon tajribasini o'rganish asosida qishloq xo'jaligining prognoz davridagi rivojlanishiga ta'sir qiluvchi narxni rag'batlantirish, integrallashgan qiymat zanjirlarini tashkil etish, tashqi bozorlarni kengaytirish, iqlim o'zgarishi, institutsional o'zgarishlar va innovatsion texnologiyalarni tanlash kabi omillarni kiritish mumkin.

Respublika miqyosida davlatimiz rahbariyati va hukumat tomonidan yuqoridagi barqarorlik yo'nalishlarida olib borilayotgan izchil agrar siyosat, o'z navbatida, qishloq xo'jaligining istiqbolli rivojlanishini ta'minlash bilan birga, tarmoqning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari barqaror o'sishiga mustahkam zamin yaratmoqda (2.1-jadval).

Masalan, tahlil qilinayotgan 2017–2022-yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2,37 barobar, investitsiyalar hajmi esa 8,8 martaga oshgan. Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 1377,2 ming so'mdan 6678,5 ming so'mgacha o'sgan.

1-jadval. Qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy indikatorlari va ularning o'zgarish tendensiyasi¹.

Ko'rsatkichlar	Yillar:						2022 y. 2017y.ga nisbatan, (+),(-)
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
Ekin maydonlari, ming ga	3474,5	3396,0	3309,4	3396,1	3340,6	3353,3	-121,2
Qishloq xo'jaligi yalpi maxsuloti, mlrd. co'm.	148199,3	187425,6	216283,1	250250,6	303415,5	347564,4	+199365,1
Shu jumladan:							
Dexqonchilik	83303,4	98406,4	111904,8	123858,8	152130,4	179853,4	+96550
Chorvachilik	64895,9	89019,2	104378,3	126391,8	151285,1	167711,0	+102815,1
Investitsiyalar, mlrd \$	1,2	1,25	1,4	1,5	1,65	1,8	+0,6
Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi maxsuloti, mln. so'm	4,5	5,9	6,7	7,7	9,1	10,2	+5,7
YalM tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi, %	34,0	31,5	28,1	28,2	25	25,1	-8,9
Qishloq xo'jaligida band xodimlar soni, mln. kishi	3,7	3,5	3,5	3,5	3,5	3,4	-0,3
Shu jumladan ularning ulushi, %	27,2	26,6	26,2	26,3	26,3	26	-1,2

Shu davrda ekin maydonlarining 3474,5 ming ga.dan 3353,3 ming ga.gacha qisqarganini e'tirof etish o'rinli. Shu bilan birga, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham yuqorida qayd etilgan islohot yo'nalishlarining amalga oshirilishi qishloq xo'jaligi tarmog'ida investitsion-innovatsion jarayonlar samaradorligini oshirish, raqamli iqtisodiyot mexanizmlari va texnologiyalarini joriy etish, investitsiya dasturlari hamda loyihalari ko'lamini kengaytirish, bandlikni ta'minlash kabi muammolarni hal etishga salmoqli asos yaratdi.

¹ Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қумитасининг маълумотлари асосида муаллиф ҳисоб китоблари.



Bu, birinchidan, bozor sharoitida zarur hajmdagi investitsiyalarni jalb etish asosida kichik sanoat soha va subyektlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va eksport qilish imkonini beradi; ikkinchidan, tashqi va ichki bozorlarga kirishni ta'minlaydi; uchinchidan esa, xorijiy investorlarni qishloq xo'jaligi sohasiga jalb qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishda miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda istiqbolli yo'nalishlarni prognoz qilishda jahon amaliyotida bir qator usul va metodlardan foydalaniladi, jumladan:


eksport imkoniyatlarini to'g'ri baholash uchun xorijiy hamda qo'shni davlatlarning qishloq xo'jaligi siyosati, xususan umumiy mahsulot hajmi va qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullari;

qishloq xo'jaligidagi zaxira yer fondlari, fermer xo'jaliklarida yer resurslaridan foydalanish tizimida almashlab ekish, mahalliy va mineral o'g'itlarni ilmiy asoslangan nisbat va miqdorlarda qo'llash, ekin yerlarini diversifikatsiyalash, suvlarning minerallasuvi, tuproq eroziyasi darajasini baholash va shu kabilar;

qishloq xo'jaligi tarmoqlari va xo'jalik subyektlari faoliyatining samaradorligini zamonaviy texnologiyalar va usullar yordamida oshirishga doir muammolar, ularning yechimlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy rag'batlantirish;

oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklar, qayta ishlovchi korxonalar va eksport bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarga (transport, logistika subyektlari va boshqalar) maqsadli subsidiyalar, bojxona va kreditlash tizimida imtiyozlar berish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hozirgi davrga kelib tashqi bozorlarda muqim raqobat ustunliklariga ega bo'lmoqda va bu holatni muhim ijobiy tendensiya sifatida baholash lozim. Jumladan, meva-sabzavot mahsulotlari eksportidan olingan daromadlar so'nggi 5 yilda keskin oshdi. Natijada, ilgari bu sohada eksport geografiasida asosan MDH davlatlari ustunlik qilgan bo'lsa, so'nggi yillarda ushbu yo'nalishning eksport bozorlari va faoliyat ko'lami tobora kengayib bormoqda (4-rasm).



4-rasm. O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari eksporti geografiasini va hajmining o'zgarish tendensiyasi (ming AQSh dollari)²

Masalan, respublikamizda yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlari eksport geografiasini 2018-yilda uncha keng bo'lmagan bo'lsa, 2022-yilga kelib sezilarli darajada kengayganini ko'rish mumkin. Eksportning asosiy ulushi 2018-yilda Tojikiston va Markaziy Osiyo davlatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2020-yildan boshlab Xitoy, Turkiya va boshqa davlatlarga ham qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish va eksport bozorlarini yanada kengaytirishga erishildi.

Zotan, respublikamizning eksport salohiyatini izchil oshirib borish, uning tovar va jug'rofiy tarkibini kengaytirish, tashqi savdo-iqtisodiy faoliyatni diversifikatsiya qilish milliy iqtisodiyotimizda olib borilayotgan

² https://www.trademap.org/Country_SelProductCountry_TS.aspx?nvpm=1%7c860%7c%7c%7c1404%7c%7c%7c4%7c1%7c1%7c2%7c2%7c1%7c2%7c1%7c1%7c1



tarkibiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu esa istiqbolda qishloq xo'jaligi sohasida sifat jihatidan sezilarli o'zgarishlarga erishish, uning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish orqali mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishiga va aholi turmush farovonligini yaxshilashga mustahkam poydevor yaratadi.

Yuqoridagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish, bizning fikrimizcha, quyidagilarga bevosita bog'liq: istiqbolda yer resurslari taqsimotini takomillashtirish, ekin yerlaridan samarali foydalanish, serhosil va serdaromad ekin maydonlarini kengaytirish, ishlab chiqarish aylanmasidan chiqqan yerlarni qayta tiklash, yangi yerlarni ochish, sohalarni maqbul joylashtirish, hududlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarni ixtisoslashtirish.

Shu boisdan, masalan, 2020-yilda 136 ming gektar maydonda dehqonchilik ekinlarini, qo'shimcha 63 ming gektar maydonga esa bog' va tokzorlarning asosiy qator oralig'iga ekish, yer osti artezian suvlaridan foydalanish orqali 124 ming gektar yerda ekinlarni almashlab ekish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, respublikada suv ta'minotini yaxshilash orqali yana qo'shimcha 155 ming gektar lalmi yerlarni o'zlashtirish uchun Bog'dorchilik va uzumchilik jamg'armasidan 300 milliard so'm mablag' ajratilgan.

FAO ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning yirik eksportyor davlatlari orasida O'zbekiston quyidagi o'rinlarni egallab turibdi: quritilgan o'rik bo'yicha – 2-o'rin, yangi o'rik – 4, olxo'ri – 7, karam – 8, mayiz – 9, shaftoli va uzum bo'yicha – 10-o'rin. Ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan pastligi va mahsulot sifatining yuqoriligi so'nggi yillarda yangi, quritilgan va qayta ishlangan meva-sabzavotlar eksportini oshirish imkonini yaratdi.³

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan davlatlarda meva-sabzavot mahsulotlari eksportini tashkil etishda o'ziga xos dasturlar va yo'nalishlar mavjud. Masalan, AQShda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat eksportini qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi dasturlar faoliyat yuritadi:

Market Access Program (Bozorga kirish dasturi);

Foreign Market Development Program (Xorijiy bozorlarni o'zlashtirish dasturi);

Emerging Market Program (Bozor iqtisodiyotini o'tish davrida rivojlantirish dasturi);

Quality Samples Program (Xorijiy xaridorlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlari namunalarni namoyish etish dasturi);

Technical Assistance for Specialty Crops (Maxsus ekin turlarini eksport qilishda texnik yordam dasturi).⁴

Shuningdek, respublikamiz amaliyotida 2018-yilning noyabr oyidan boshlab yuridik shaxslarga oldindan to'lovsiz, akkreditiv ochmasdan va ulgurji savdoga litsenziya olmasdan meva-sabzavotlarni eksport qilishga ruxsat berildi. Eksport qilinayotgan meva-sabzavot mahsulotlarini majburiy bojxona tekshiruvidan o'tkazish tartibi bekor qilindi. 2019-yilning mart oyidan esa meva-sabzavot mahsulotlarini har qanday miqdorda faqat invoys asosida, kontraksiz eksport qilishga ruxsat berildi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi va uning barcha tarmoqlarini tarkibiy isloh qilish va rivojlantirish, eksport salohiyatini yuksaltirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash – istiqbolda ushbu strategik tarmoqni bozor raqobatiga mos ravishda rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Shu sababli, mavjud muammolarni hal etishda xorijiy tajribalarni o'rganish va ularning ilg'or yutuqlarini respublikamiz meva-sabzavotchilik tarmog'iga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda nisbatan ko'proq iste'mol qilinadigan don ekinlari hosildorligi dunyo miqyosidagi o'rtacha darajadan 15–20 sentner/gektar yoki undan ham past bo'lishi mumkin. Ularda ishlab chiqarish sektori asosan ozuqa ekinlarini yetishtiradigan mayda va kichik xo'jaliklardan tashkil topgan bo'lsa-da, shu bilan birga yirik va samarali faoliyat yuritayotgan barqaror plantatsiyalar ham mavjud. Masalan, Markaziy Amerika davlatlaridagi banan plantatsiyalari yoki Braziliyadagi qahva plantatsiyalari shular jumlasidandir (2-jadval)⁵.

2-jadval. "Tovar qishloq xo'jaligi" va "Iste'mol qishloq xo'jaligi" o'rtasidagi asosiy farqlar⁶

Tovar qishloq xo'jaligi	Iste'mol qishloq xo'jaligi
Farqi:	Farqi:
Yuqori hosildorlik	Hosildorligi past
Intensiv rivojlanish	Ekstensiv rivojlanish
Chuqur ixtisoslashtirish	Ixtisoslashish darajasining pastligi
Quyidagi asosiy yo'nalishlar:	

3 Корректировка ТЭО. Проект развитие сектора плодоовощеводства в Республике Узбекистан с участием МБПП Книга 1 Пояснительная записка Ташкент 2018г. с. 76.

4 Foreign Agricultural Service, <http://www.fas.usda.gov>

5 Сельскохозяйственный прогноз ОЭСР-ФАО на 2018-2027 годы [Электронный ресурс]. URL: <http://www.fao.org/publications/oecd-fao-agricultural-outlook/2018-2027/en/> (дата обращения 11.12.2018)


6 Мировая экономика / Под редакцией проф. А.С. Булатова. – М.: Юристъ, 2009.



Intensiv qishloq xo'jaligi va mahsulotlarni markazlashlangan tartibda tayyorlash	Ish hayvonlari va qo'l mehnatiga asoslangan qishloq xo'jaligi
Intensiv bog'dorchilik va sabzavotchilik	Ekstensiv chorvachilik tarmoqlari
Madaniylashgan yaylov chorvachiligi	Ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvachilik
Navbat bilan har bir dalaga 1 yil ekin ekmay tuproq unumdorligini oshirish	Ekin maydonlaridan ekstensiv omillar asosida foydalanish

Rivojlangan mamlakatlarda esa qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bog'liq barcha omil va usullardan ilmiy asosda hamda zamonaviy kompyuter dasturlari orqali foydalaniladi. Bunday davlatlarda boshqaruv mexanizmlari va amaliy vositalar yuqori darajada rivojlangan. Shu sababli "tovar qishloq xo'jaligi" va "iste'mol qishloq xo'jaligi" platformalariga asoslangan davlatlar o'rtasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va rivojlantirishda sezilarli farqlar mavjud.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, jami umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti va importining jami tovarlar eksporti va importidagi ulushi mos ravishda 2022-yilda 9,1 % va 11,9 %, 2016-yilda esa 1,6 % va 1,4 %ni tashkil qilgan. (5-rasm).




5-rasm. 2022-yilda jami tovarlar eksporti va importi qiymatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti va importining ulushi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, global iqlim o'zgarishi va boshqa qator omillar ta'sirida, statistik ma'lumotlarga ko'ra, sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan va hozirda o'z iqtisodiy-siyosiy mustaqilligiga erishgan ko'plab mamlakatlarda jami tovarlar eksporti tarkibida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushi sezilarli darajada qisqargan. Jumladan, Belorusda bu ko'rsatkich 18,0 %dan 15,5 %gacha, Gruziyada 32,8 %dan 28,7 %gacha, Moldovada 46,6 %dan 43,4 %gacha, Turkmanistonda 9,4 %dan 6,3 %gacha, O'zbekistonda esa 26,1 %dan 16,2 %gacha kamaygan.



Yuqoridagi choralar o'z natijasini berib, 2021-yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari eksportida Qozog'iston yetakchi o'rinni egallagan. Biroq ushbu davlatga eksportdan tushgan tushum umumiy valyuta tushumining 20,5 %ini tashkil qilgan. Ayni paytda Rossiya Federatsiyasiga Qozog'istonga qaraganda 40 % kam mahsulot eksport qilingan bo'lsa-da, umumiy valyuta tushumining qariyb 30,5 %i aynan Rossiyaga to'g'ri kelgan.

Shuningdek, respublikamizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini Xitoy, Turkiya va boshqa Yevropa davlatlariga eksport qilish orqali nafaqat oziq-ovqat bozorini kengaytirish, balki valyuta tushumini ko'paytirish imkoniyatidan ham samarali foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz (6-rasm).



6-rasm. O'zbekiston Respublikasi meva-sabzavot mahsulotlari eksport hajmi va umumiy valyuta tushumi digrammasi (2021 y.)⁷

2022-yilda 2017-yilga nisbatan jami qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi 2,3 martaga oshgan. Demak, ichki bozorning yetarlicha to'yinganligi, o'z navbatida, sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish va uning geografiasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Bunda, bizningcha, meva-sabzavotchilik sohasining eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning quyidagi yo'nalishlari va mexanizmlari muhim rol o'ynaydi. Jumladan:

Avtotransport va havo transporti orqali mahsulot yetkazib berish xarajatlarining 50 %i qoplab berilishi eksportyorlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi. Ilgari faqat temir yo'l orqali tashiladigan eksport yuklari subsidiyalangan bo'lib, bu transport vositasi kichik hajmdagi yuklar uchun samarasiz edi;

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportga ko'maklashish agentligi eksportyor sug'urta summasidan garov sifatida foydalanganda, uning sug'urta mukofotini qoplab beradi. Bu mahsulotlarni yetkazib berishda moliyaviy xavfsizlik nuqtayi nazaridan samarali mexanizm hisoblanadi;

Eksport tovarlari uchun bojxona hujjatlarini rasmiylashtirishda jismoniy shaxslarga nisbatan majburiy to'lovlar va ijro hujjatlari bo'yicha qarzlarni tekshirish tartibining bekor qilinishi eksport jarayonlarini tezlashtirib, ularni soddalashtirishga xizmat qilmoqda⁸.

Shunday qilib, prognozlash ilmiy asoslangan rejaviy qarorlar qabul qilishning asosi hisoblanib, rejalashtirishning ilmiy darajasini oshirish va ilmiy ma'lumotlar bazasini shakllantirish uslublaridan biri sifatida o'rta va uzoq muddatli reja konsepsiyasi, tizimli tahlil va optimal rejaviy qarorlarni qabul qilishni qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Amaliyotda rejalashtirishda ilmiy asoslangan prognozlardan foydalanish korxonalarining maqsadli rivojlanish istiqbollarini aniqlash, iqtisodiy o'sishning salbiy tendensiyalarini o'z vaqtida oldini olish, resurslardan oqilona foydalanishning optimal usullarini belgilash, yer resurslari miqdori va sifatini ilmiy asoslash, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

⁷ <https://yuz.uz/news/2021-yilda-ozbekistonning-meva-sabzavot-mahsulotlari-eksporti>.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 7 майдаги "Экспорт фаолиятини янада қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4707 қарори.



Fikrimizcha, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda miqdor va sifat ko'rsatkichlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlagan holda istiqbolli yo'nalishlarni prognoz qilishda jahon amaliyotida bir qator usul va metodlardan foydalaniladi.

Qishloq xo'jaligi YalMga ta'sir etuvchi asosiy uchta omil – ekin maydoni, hosildorlik va investitsiya hajmining ta'sir darajalarini aniqlovchi ekonometrik model asosida respublika meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan bashorat ko'rsatkichlari ekin maydoni, hosildorlik va eksport hajmi indikatorlari asosida ishlab chiqildi. 2015 va 2021-yillarga nisbatan 2030-yilda sabzavot mahsulotlari hajmi mos ravishda 1,6 va 1,4 marta, meva – 2,0 va 1,8 martadan ortiq, uzum esa 1,4 va 1,3 martaga yaqin o'sishi prognoz qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Eksport imkoniyatlarini to'g'ri baholash uchun xorijiy hamda qo'shni davlatlarning qishloq xo'jaligi siyosati, jumladan, umumiy mahsulot (tovar) hajmi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari chuqur tahlil qilinishi lozim.

Qishloq xo'jaligidagi zaxira yer fondlari, fermer xo'jaliklarida yer resurslaridan foydalanish tizimida almashlab ekish, mahalliy va mineral o'g'itlardan ilmiy asoslangan nisbat va miqdorlarda (GMOdan xoli holda) foydalanish, ekin yerlarini diversifikatsiyalash, suvlarning minerallashuv darajasi, tuproq eroziyasini baholash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilishi zarur.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i va xo'jalik sub'ektlari faoliyati samaradorligini raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullar orqali oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim.

Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiruvchi xo'jaliklar, qayta ishlovchi korxonalar va eksport faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar (transport, logistika sub'ektlari va boshqalar) uchun maqsadli subsidiyalar, bojxona va kreditlash tizimida imtiyozlar joriy etilishi muhim.

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, tashish, qayta ishlash, saqlash va sotish tizimidagi islohotlar eksport salohiyatini oshirishda hal qilinmagan muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun xalqaro standartlar, tovarlarning ichki va tashqi bozorlardagi harakati, qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlantirish istiqbollarini belgilovchi raqamli elektron platformaning yaratilmaganligi, axborot bazasining esa to'liq shakllantirilmagani dolzarb muammolardan biri sifatida qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-sonli Farmoni.
2. FAO. 2020. Agroprodovolstvennyye rynki i trgovaya politika v period pandemii COVID-19. Rim. <https://doi.org/10.4060/ca8446ru>, Adaptatsiya biznes-modeley dlya podderjaniya agroprodovolstvennykh predpriyatiy vo vremya pandemii COVID-19
3. Metodicheskie podxody k razrabotke prognoznnykh modeley razvitiya selskoxozyaystvennogo proizvodstva sChR RF / I.F. Xiskov, V.F. Pechenevskiy, I.B. Zagaytov i dr. // Pod nauchno-met. rukovodstvom akademika RASXN Xiskova I.F., d.e.n. Zagaytova I.B. – Voronej: GNU NIIEOAPK sChR RF, 2014. – 64 s.
4. The Global Competitiveness Report 2001-2002, Executive Summary: Competitiveness and Stages of Economic Development, Michael E. Porter, Jeffrey D. Sachs, John W. McArthur.
5. K.Zokirov, Z.Xosilova, B.Shermatov, A.Komilov, A.Mengnorov and D. Abdullayev. Changes in the agrochemical properties of the soil during fertilization of the watermelon plant. BIO Web of Conferences 149, 01036 (2024). <https://doi.org/10.1051/bioconf/202414901036>.
6. Тургунов Т.Т., Менгноров А.А. Математические методы прогнози-рования сельскохозйственных производств // Вестник науки и образования 2020. № 24 (102). часть 3-В. Рос. импакт-фактор 3,58. стр. 26-29.
7. Менгноров А.А., Джураев Б.Б. Specific Requirements and Characteristics of the Assessment of the Development and Transformation of Agriculture in the Process of Economic Modernization. // 17.01.2023. International journal of biological engineering and agriculture. Том 2(1) p. 23-30.
8. А.А.Абдувасиков А.А., Менгноров А.А., Ачилов М.У. Econometric analysis and forecast of the development of the fruit and vegetable network in the conditions of digitalization of the economy. // IOP Conference Series: Earth and nvironmental Science 2023/3/1 Том 1142 (1). p. 106.
9. Менгноров А.А. Factors Affecting on the competitiveness and exports of agriculture products in Uzbekistan. // Matererialien der XVI internationalen wissenschaftlichen und praktichen konferenz Wissenschaft ohne Grenzen – 2020 Volume 20. – 30 март-7 апрел 2020. p.256-258 б.
10. Мамадияров Д.У., Менгноров А.А., Жалилов Ш.Х., Джураев Б.Б. Forecasting vegetable prices on the basis of the markov chain model. // Solid State Technology – 2020 Volume: 63 Issue: 4. p. 8.
11. Boshlarovich, I. A. (2024). Opportunities for the development of the walnut market within the framework of farm activities. Science and Innovation, 3(4), 37-44.
12. Inobatov, A. (2024). Xususiy sektordagi tadbirkorlik faoliyatiga berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(3), 24-30.



13. Inobatov, A. (2024). Dehqon xo'jaliklarida yetishtirilgan grek yong'og'ini iste'molchilarga yetkazib berish yo'llari.
14. Inobatov, A. (2024). Dehqon xo'jaliklarida grek yong'og'i ishlab chiqarish tizimining hozirgi holati «Agroiqtisodiyot jurnal» 2(4)15-17.
15. Inobatov, A. (2024) Qishloq xo'jaligiga kiritilgan investitsiyalarning samaradorligini baholash «Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda demografik omillarning o'rni» respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. –T.: TDIU 2024. – 355 b.
16. Inobatov, A., & Ziyadullaev, I. (2023). Improving the methodology for predicting the yield of walnuts in farms based on econometric models. In E3S Web of Conferences (Vol. 376, p. 02001). EDP Sciences.
17. Bozorova O.R. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni nazariy ilmiy asoslari iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2024-yil, fevral



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>